

HADIS TO'PLAMLARIDA AXLOQ VA TARBIYAGA OID TERMINLARNING LUG'AVIY VA ISTILOHIY TAHLILI

ЛЕКСИЧЕСКИЙ И ТЕРМИНОЛОГИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ ПРАВСТВЕННО-ВОСПИТАТЕЛЬНЫХ ПОНЯТИЙ В СБОРНИКАХ ХАДИСОВ

LEXICAL AND TERMINOLOGICAL ANALYSIS OF MORAL AND EDUCATIONAL TERMS IN HADITH COLLECTIONS

AGZAMOVA Muhabbatxon Mirtoxirovna,
INTERNATIONAL ISLAMIC ACADEMY OF UZBEKISTAN
Doctor of Philosophy in History, Associate Professor of
ICESCO chair for Islamic Studies and the
Study of Islamic Civilization,
m.agzamova@iiu.uz
11, A.Kadiri, Tashkent, 100011, Uzbekistan

DOI: 10.47980/IIAU/2025/4/3

Аннотация. Islom dini o'zining asosiy manbalari Qur'oni karim va hadislar orqali nafaqat ibodat masalalarini, balki axloqiy fazilatlar, jamiyatda tinch-totuv hayot kechirish, o'zaro hurmat, insof, sabr, halollik kabi umuminsoniy qadriyatlarni ham keng targ'ib etadi. Payg'ambar Muhammad (s.a.v.)ning "Men go'zal xulqni mukammallashtirish uchun yubordim" – degan so'zlari bu dinning markazida axloqiy tarbiyaning turganini aniqlaydi va hadis ilmidagi axloqiy-tarbiyaviy terminlarni o'rganish mustaqil ilmiy yo'nalish sifatida shakllangan. Hadis to'plamlarida keng o'rin olgan "Kitob al-Adab" boblari orqali Rasululloh (s.a.v.)ning axloqiy fazilatlarini, insonlar o'rtasidagi ijtimoiy munosabatlarga oid ko'rsatmalari, kundalik hayotga tatbiq etilishi lozim bo'lgan odob-axloq me'yorlari bayon etiladi.

Hadis to'plamlarida axloqiy-tarbiyaviy mazmundagi rivoyatlar alohida kitoblar va boblar shaklida jamlangan. Masalan, Imom Buxoriy o'zining "al-Jome' as-Sahih" asarida "Kitob al-Adab" bobida 128 kichik bob ostida 250 ga yaqin hadis keltirgan bo'lsa, "al-Adab al-Mufrad" nomli alohida asarini butkul axloqiy mavzularga bag'ishlagan. Shuningdek, Imom Termiziyda "Kitob al-birr va as-sila", Imom Muslimda "Kitob al-birr", Imom Abu Dovudda "Kitob al-adab", Imom Dorimiyda "Kitab al-raquiq" kabi boblar mavjud bo'lib, ularda axloqiy-tarbiyaviy hadislar jamlangan.

Bu boblarda ko'p uchraydigan asosiy tushunchalar – adab, birr, raquiq, zuhd, xulq, rahm, sabr, shukr kabi lug'aviy va istilohiy jihatdan boy ma'noga ega terminlar asosida shakllangan. Masalan, "adab" lug'atida "go'zal odob, muomala madaniyati, axloqiy go'zallik" ma'nolarini bildiradi. Istilohda esa bu – Rasululloh (s.a.v.) sunnatiga asoslangan axloqiy amallar tizimini anglatadi. "Birr" esa "yaxshilik, ezigulik qilish" degani bo'lsa, istilohda bu Allohga

itoat, ota-onaga ehtirom, yetimlarga mehr-shafqat kabi keng ijtimoiy xulq-atvorlarni qamrab oladi.

Turli muhaddislar tomonidan tuzilgan mashhur hadis majmualari, jumladan, "Kutub as-sitta" (olti ishonchli hadis to'plami)da ushbu mavzuning alohida yoritilishi hadis ilmi doirasida "adab" tushunchasi qanday diniy, axloqiy va ijtimoiy ahamiyatga ega ekanini yaqqol namoyon etadi. Bu asarlarda faqat fiqhii yoki aqidaviy masalalar emas, balki axloqiy fazilatlar, odob-axloq qoidalari, ijtimoiy muomala madaniyati va shaxsiy komillik haqidagi hadislar ham alohida bo'limlarda jamlangan. Mazkur bo'limlarda axloqiy mavzular doirasi juda keng bo'lib, rostgo'ylik, halollik, sabr-toqat, tavoze, shukr va qanoat, mehr-oqibat, saxovat, o'zini tiyish, qo'shnichilik va qarindoshlik rishtalari, ota-onaga hurmat, bolalar tarbiyasi, jamiyatda tinch-totuv yashash kabi ko'plab axloqiy qadriyatlar atroficha yoritilgan. Bunday mavzularning sahih hadislar asosida yoritilishi ularning din asosidagi muhim o'rni va zamonaviy axloqning qanday ijtimoiy ahamiyatga ega ekanini ko'rsatadi.

Ushbu maqolada hadis to'plamlarida axloq va tarbiyaga oid terminlar, tushunchalar lug'aviy va istilohiy tahlili qilingan.

Калит сўзлар: Axloq, tarbiya, adab, zuhd, raquiq, birr, taqvo, sabr, halollik, xulq, ma'naviyat, ma'rifat, odob, tamoyil, qadriyat, fazilat, tafsir, din, hadis.

Аннотация. Ислам, основываясь на Коране и хадисах, регулирует не только вопросы поклонения, но и формирует целостную систему нравственных ценностей, направленных на упорядочение общественных отношений и обеспечение гармоничного сосуществования людей, включая принципы справедливости, взаимного уважения, терпения и честности. Слова пророка Мухаммада (мир ему): «Я был послан для совершенствования благонравия» ясно указывают на центральное место нравственного воспитания в исламе и свидетельствует о становлении изучения нравственно-воспитательной тематики в хадисоведении как самостоятельного научного направления. Это находит отражение в разделах «Китаб аль-Адаб», широко представленных в сборниках хадисов, где излагаются нравственные качества Посланника Аллаха (мир ему), его наставления, касающиеся социальных отношений, а также нормы поведения, предназначенные для практического применения в повседневной жизни.

В сборниках хадисов материалы нравственно-воспитательного содержания систематизированы в виде отдельных книг и глав. Так, Имам аль-Бухари в труде «аль-Джами' ас-Сахих» включил в раздел «Китаб аль-адаб» около 250 хадисов, распределённых по 128 подразделам, а отдельное сочинение «аль-Адаб аль-муфрад» полностью посвятил вопросам нравственности. Аналогичные разделы представлены у Имама ат-Тирмизи («Китаб аль-бирр ва ас-сила»), Имама Муслима («Китаб аль-бирр»), Имама Абу Дауда («Китаб аль-адаб») и Имама ад-Дарими («Китаб ар-ракаиқ»), где собраны хадисы, посвящённые нравственному воспитанию.

Ключевые понятия, часто встречающиеся в этих разделах, – адаб, бирр, ракаик, зухд, хулк, рахм, сабр, шукр и другие – представляют собой термины с богатым лексическим и терминологическим содержанием. Так, адаб в лексическом значении означает «благовоспитанность, культура общения, нравственная утонченность», а в терминологическом смысле – систему нравственных поступков, основанных на сунне Посланника Аллаха (мир ему). Термин бирр лексически означает «добродетель, совершение добра», а в терминологическом употреблении охватывает повиновение Аллаху, почтительное отношение к родителям, милосердие к сиротам и широкий спектр социально-нравственного поведения.

Особое внимание к данной тематике в известных хадисных сводах, составленных различными мухаддисами, включая «Кутуб ас-ситта» – шесть авторитетных сборников хадисов, наглядно демонстрирует религиозное, нравственное и социальное значение понятия адаб в рамках хадисоведения. Эти труды посвящены не только правовым и вероучительным вопросам, но и содержат обширный материал о нравственных добродетелях, нормах поведения, культуре социальных отношений и путях личностного совершенствования, которые систематизированы в специальных разделах. Тематика этих разделов чрезвычайно широка и в них подробно рассматриваются такие ценности, как правдивость, честность, терпение, скромность, благодарность и довольство, милосердие, щедрость, самоконтроль, добрососедство и родственные связи, уважение к родителям, воспитание детей, а также принципы мирного и согласованного сосуществования в обществе. Освещение этих вопросов на основе достоверных хадисов подчеркивает их фундаментальное значение в религии и позволяет увидеть социальную значимость нравственных норм в контексте современного общества.

В статье проводится лексический и терминологический анализ понятий и терминов, связанных с нравственностью и воспитанием, на материале классических сборников хадисов.

Ключевые слова: нравственность, воспитание, адаб, зухд, ракаик, бирр, богобоязненность, терпение, честность, нрав, духовность, просвещение, этикет, принцип, ценность, добродетель, тафси́р, религия, хадис.

Annotation. Islam, based on its primary sources—the Holy Qur'an and the Hadith—addresses not only issues related to religious worship but also systematically promotes moral virtues and universal human values, including social harmony, mutual respect, justice, patience, and honesty. The words of Prophet Muhammad (peace be upon him), "I was sent to perfect noble character," clearly express that moral education lies at the core of this religion, and the study of ethical and educational terms in the science of Hadith has formed as an independent academic discipline. Through the chapters titled "Kitab al-Adab" in Hadith collections, the moral virtues of the Prophet Muhammad (peace be upon him), his guidance on social relations among people, and

the ethical norms that should be applied in daily life are systematically presented.

Narrations of ethical and educational content in Hadith collections are compiled in the form of separate books and chapters. For instance, Imam Bukhari, in his book "al-Jami' as-Sahih", presents nearly 250 hadiths under 128 sub-chapters within the "Kitab al-Adab" section, while dedicating a separate book, "al-Adab al-Mufrad", entirely to moral subjects. Similarly, Imam Termidhi includes "Kitab al-Birr wa as-Sila", Imam Muslim has "Kitab al-Birr", Imam Abu Dawud contains "Kitab al-Adab", and Imam Darimi includes "Kitab al-Raqaiq", all of which gather Hadiths of ethical and educational nature.

These chapters are formed based on key terms that frequently appear, such as adab, birr, raqaiq, zuhd, khuluq, rahm, sabr, shukr, which possess rich meanings both lexically and terminologically. For instance, adab, in the dictionary, means "good manners, etiquette, moral beauty." In terminological usage, it refers to a system of moral actions based on the Sunnah of the Prophet (peace be upon him). 'Birr' means "goodness, doing good" in general, while in terminology, it encompasses wide-ranging social behaviors such as obedience to God, respect for parents, and compassion towards orphans.

The deliberate coverage of this topic in famous Hadith collections compiled by various muhaddiths, including the Kutub as-Sitta (the six authentic Hadith collections), clearly demonstrates the religious, moral, and social importance of the concept of adab within the science of Hadith. These works not only address jurisprudential or theological issues but also dedicate separate sections to hadiths concerning moral virtues, ethical norms, social etiquette, and personal refinement.

The range of ethical topics in these sections is very broad, and includes values such as truthfulness, honesty, patience and endurance, humility, gratitude and contentment, compassion, generosity, self-restraint, neighborly and kinship ties, respect for parents, child upbringing, and peaceful living in society. The exposition of such topics based on authentic hadiths underscores their significant role within the framework of religion and highlights the social relevance of contemporary moral values.

Keywords: Ethics, education, etiquette, asceticism, emotional delicacy, piety, God-consciousness, patience, honesty, character, spirituality, enlightenment, ethical conduct, principles, values, virtues, exegesis, religion, and hadith.

КИРИШ

Hadis ilmi axloqiy-ma'naviy qadriyatlarini belgilashda muhim manba bo'lib, ayniqsa, hijriy II asr oxiri va III asr boshidan boshlab hadis to'plamlarida ayrim mavzular mustaqil "kitob" (bob)lar tarzida tasnif qilina boshladi (Ibn Saloh. Ulum al-hadis, 2009:17-18).

Bu holat hadislarining mazmuni va maqsadlarini yanada chuqurroq anglashga zamin yaratdi. Shunday tasnifiy rivojlanish natijasida axloqiy mavzular muayyan boblar ko'rinishida to'plangan bo'lib, bu hadis ilmining tematik taraqqiyot bosqichlarini yaqqol namoyon etadi. Ushbu maqolada hadis adabiyotida axloqiy mavzularning shakllanishi va tasniflanish jarayonlari o'rganiladi. Xususan, "Kutub as-sitta" (<https://sunnah.com/>) doirasidagi mashhur to'plamlarda uchraydigan "Kitabu husnu-l-xulq" (كتاب حُسْنُ الْخُلُقِ), "Kitabu'l-adab" (كتاب الأدب), "Kitabu'z-zuhd" (كتاب الزهد), "Kitabu'z-zuhd va'r-raqiq" (كتاب الزهد والرقائق), "Kitabu'r-Riqoq" (كتاب الرقاق) kabi bo'limlar tahliliy ko'rib chiqildi.

УСЛУБАЛАР

Maqola doirasida mashhur to'plamlardagi "Kitabu husnu-l-xulq" (كتاب حُسْنُ الْخُلُقِ), "Kitabu'l-adab" (كتاب الأدب), "Kitabu'z-zuhd" (كتاب الزهد), "Kitabu'z-zuhd va'r-raqiq" (كتاب الزهد والرقائق), "Kitabu'r-Riqoq" (كتاب الرقاق) bo'limlarning mazmuni, tartib va tasnifi tahlil qilinib, "Kitabu'l-axloq" (كتاب الأخلاق) atamasi ostida jamlangan hadislar qanday umumiy asosiy mavzularni qamrab olganligi, ularning o'zaro o'xshash va farqli jihatlari ilmiy asosda tadqiq qilingan. Shuningdek, hadis to'plamlarida axloqiy mavzularning qanday uslubda berilgani, ularning tematik yo'nalishi, shakllanish bosqichlari va tasnifiy yondashuvlari tahlil qilingan. Ushbu yondashuv orqali hadis adabiyotida axloqiy-odobiy bo'limlarning tutgan o'rnini va ularning tasnifiy ahamiyati aniqlashtirilgan.

НАТИЖАЛАР

Hadis adabiyotida axloqqa oid masalalar turli sarlavhalar ostida o'rganilgan. "Kitab al-adab", "Kitab ar-riqoq", "Kitab az-zuhd" kabi bo'limlar aynan axloqiy tarbiya va ruhiy kamolotga doir hadislarini jamlashni maqsad qilgan. Ayniqsa, "Jome'" tipidagi hadis to'plamlarida "Kitab al-adab" (al-Jomi' al-sahih, 2018:9 <https://sunnah.com/bukhari>) bobining mavjudligi muhim mezonlardan biri sanaladi. Bu boblar odatda ovqatlanish, ichimlik ichish, kiyinish, sayohat, yotish-turish, insonlararo muomala, salomlashish, mehmondo'stlik, mehr-oqibat, qariyalarga hurmat, bolalarga g'amxo'rlik kabi kundalik hayotda zarur bo'lgan axloqiy qoidalarini o'z ichiga oladi. "Sunan" tipidagi to'plamlarda bu kabi bo'limlar har doim mavjud bo'lmasa-da, aksariyat hollarda "Kitab al-adab" bo'limi mustaqil shaklda mavjud bo'lib, bu hadis to'plamlarining ijtimoiy va tarbiyaviy ahamiyatini oshiradi.

Imom Abu Dovudning "Sunan" asarida keltirilgan "Kitab al-adab" (Sunan Abu Dovud, 1997: <https://sunnah.com/abudawud>) bo'limi 500 dan ortiq hadisni o'z ichiga olgan bo'lib, bu jihatdan hattoki "Jome'" tipidagi to'plamlar bilan tenglashadi. Bu holat hadis to'plovchilarining axloqiy mavzularga qanchalik e'tibor berganini ko'rsatadi. Shuningdek, boshqa mashhur hadis to'plamlari – Imom Termiziy (Sunan Termiziy, 2009: <https://sunnah.com/tirmidhi>), Imom Nasoiy (Sunan Nasoiy, 2018: <https://sunnah.com/nasai>), Imom Ibn Moja (Sunan ibn Mojja, 2006: <https://sunnah.com/ibnmajah>) va Imom Ahmad ibn Hanbal tomonidan tuzilgan "Musnad" (Ahmad ibn Hanbal, Musnad. 1997: <https://sunnah.com/ahmad>) asarlarida ham axloq, odob, taqvo, ruhiy poklik, dunyoga muhabbat, zuhd, riyozat, ijtimoiy mas'uliyat kabi mavzularga oid yuzlab hadislar jamlangan.

Hadislarning ilk tasniflaridan bo'lgan "Al-Muvatto" kabi manbalarda "Husn al-xulq" (go'zal xulq) sarlavhasi ostida, asosan ezgu fazilatlarini targ'ib etuvchi va yaxshi axloqni madh etuvchi rivoyatlar jamlangan. Shuningdek, "Kitob al-adab" hamda "Kitob al-birr va's-sila" (ezgulik va qarindoshlik aloqalari) kabi bo'limlar mazmun-mohiyatiga ko'ra bevosita axloq masalalariga doir boblar sifatida qaraladi. Imom Buxoriyning mustaqil ravishda tasnif etgan "Al-adab al-mufrad" asari esa hadis ilmidagi axloqiy mavzularni alohida kitob shaklida jamlagan ilk mustaqil tadqiqot namunasidan biri hisoblanadi ("Adabul-mufrad" asariga sharh. 2021:516).

Ammo "Adab-axloq" sarlavhasi ostida berilgan rivoyatlar tahlil qilinadigan bo'lsa, kundalik hayotga oid ko'plab masalalar bilan bir qatorda muhim axloqiy tamoyillar haqidagi rivoyatlarning ham yonma-yon keltirilganini ko'rish mumkin. Bu boblarda kishining o'ziga, jamiyatga va Allohga nisbatan bo'lgan burch va majburiyatlarini bildiruvchi hadislar bilan bir qatorda kiyinish, atir surtish, soch va tirnoqlarni olish, ovqatlanish, ichish, uxlash, oynaga qarash kabi hayotiy odatlar bilan bog'liq rivoyatlar ham mavjud.

Masalan, Imom Muslimning "Kitob al-adab" (Sahih Muslim, 1972: <https://sunnah.com/muslim>) bobida 10 ta bob ostida 45 ta rivoyat jamlangan. Ammo ularning aksariyati bevosita axloqiy emas. Masalan, axloqiy nuqtai nazardan oilaviy shaxsiy hayotni buzish bo'lgan Isti'zan (kimningdir uyiga kirishdan oldin ruxsat so'rash) va boshqalarning uyini kuzatmaslik – Qur'onda ham ta'kidlangan axloqiy qoidalar bo'lsa, yangi tug'ilgan chaqaloqqa bir qarindoshning og'zida chaynagan xurmoni yoki taomini berish kabi to'g'ridan-to'g'ri axloqqa aloqasi bo'lmagan, balki arab urf-odatlariga oid amaliyotlar ham bir xil qadriyat mezonini

asosida keltirilgan. Bunday misollarni ko'plab keltirish mumkin.

Imom Buxoriy hadislarini tanlash va tasniflashda qat'iy mezonlarga amal qilgan bo'lib, bu yondashuv bugungi ilmiy tadqiqotlar va axborot ishonchliligi tamoyillariga uyg'un keladi. Ayniqsa, soxta hadislar va noto'g'ri diniy da'volar kuchayib borayotgan bugungi globallashuv davrida, yosh avlodni haqiqat va yolg'onni farqlashga o'rgatishda sahih hadislar asosidagi tarbiya usullarining ahamiyati oshib bormoqda. Shu jihatdan qaralganda, hadis to'plamlarida alohida e'tibor qaratilgan "adab" va "axloq" sohalari islom tarbiyasining ajralmas bir bo'lagi bo'lib, ularning chuqur tahlili bugungi jamiyatda axloqiy inqirozlarning oldini olish, ma'naviy yuksalishga erishish yo'lida muhim omil bo'lib xizmat qiladi.

MYXOKAMA

"Axloq" tushunchasi hadis ilmi nuqtayi nazaridan g'oyat muhim tushunchalardan biri bo'lib, bu so'z arab tilida "xulq" (خُلُق) yoki "xuluq" (خُلُق) so'zlarining ko'plik shakli bo'lib, fe'l-atvor, odat, tabi'at, ichki holat yoki ruhiy-madaniy xususiyatlar ma'nosini bildiradi (TDV Islâm Ansiklopedisi, <https://islamansiklopedisi.org.tr/ahlak>). Lug'aviy ma'noda insonning moddiy shakli "xalq" (خَلْق) so'zi bilan, ma'naviy tuzilmasi esa "xulq" (خُلُق) so'zi bilan ifodalanadi. Har ikki so'z bir ildizdan kelib chiqqan bo'lib, bu ildiz "yaratmoq" ma'nosini bildiruvchi "xilqat" (خِلْقَة) so'ziga borib taqaladi. Shuning uchun, arab tilida "xalq" va "xulq" shakllari yozilishi bir xil bo'lsa-da, talaffuzi va ma'nosi bilan farqlanadi: biri tashqi, jismoniy holatni, ikkinchisi esa ichki, ruhiy-axloqiy holatni ifodalaydi.

Ushbu ikki so'zning birinchisi – "xalq", insonning ko'z bilan ko'rish, qo'l bilan tutish mumkin bo'lgan moddiy mavjudot sifatidagi yaratilishini anglatadi. Ikkinchisi – "xulq", insonning xulq-atvori, xarakteri, tabiati, fe'l-harakati, odat va muomalalari kabi faqat basirat (qalb ko'zi) bilan anglanadigan ma'naviy mohiyatini bildiradi (Al-qomus al-muhit, – J. I. 1995:880). Aynan mana shu ikkinchi ma'nodagi "xulq" so'zining ko'plik shakli "axloq" (أَخْلَاق) hisoblanadi. Boshqa bir qarashga ko'ra, "xilqat" so'zining ko'plik shakli "xuluq", undan esa "axloq" shakli kelib chiqqan. Bu ta'riflarga asoslanadigan bo'lsak, "axloq" atamasi "ma'naviy yaratilishlar majmuasi" ma'nosini o'zida mujassam etadi.

"Axloq" tushunchasi mazmunan juda keng semantik qamrovga ega bo'lib, u bilan bog'liq holda ko'plab murakkab iboralar shakllangan: "حُسْنُ الْخُلُقِ"

(go'zal axloq), "الأَخْلَاقُ الْفَاضِلَةُ" (fazilatli axloq), "الأَخْلَاقُ" (axloq), "الذَّمِيمَةُ" (yomon axloq), "الأَخْلَاقُ الْحَمِيدَةُ" (maqtoqli axloq), "سُوءُ الْخُلُقِ" (axloqsizlik), "الأَخْلَاقُ الْعَامَّةُ" (umumiy axloq), "عِلْمُ الْأَخْلَاقِ" (axloq ilmi) va hokazo. Ko'rinish turibdiki, "axloq" so'zi ba'zan ijobiy, ba'zan esa salbiy ma'noda ham qo'llanilishi mumkin (Mavsu'at al-axloq, – J. I. 2009:22).

Hadis matnlarida "xulq" va "axloq" atamaları, asosan, inson xulq-atvori, fe'l-harakatlari hamda ruhiy-ma'naviy sifatlarini ifodalash uchun ishlatilgan bo'lib, ularning ijobiy yoki salbiy ko'rinishlariga qarab turli terminologik birikmalar bilan tavsiflangan. Xususan, yaxshi xulq va fazilatli muomalalar حُسْنُ الْخُلُقِ (go'zal xulq), مَخَاسِنُ الْأَخْلَاقِ (axloqiy go'zalliklar), مَكَارِمُ الْأَخْلَاقِ (yaxshi axloq), اُلُحْلَاقُ الْحَسَنَةِ (ulug' axloqiy fazilatlar), الْأَخْلَاقُ الْحَمِيدَةُ (maqtoqli axloq) kabi iboralar orqali ifoda etilgan.

Yomon xulq esa سُوءُ الْخُلُقِ (yomon xulq), الْأَخْلَاقُ الذَّمِيمَةُ (yomon, qoralangan axloq) kabi istilohlar bilan ta'riflangan. Bunga qo'shimcha tarzda, "axloq" atamasi turli manbalarda yanada keng doiradagi terminologik shakllarda ham uchraydi. الْأَخْلَاقُ الرَّذِيلَةُ (past axloq), الْأَخْلَاقُ الدَّنِيَّةُ (qoralangan axloq), الْأَخْلَاقُ الْجَمِيلَةُ (go'zal axloq), الْأَخْلَاقُ الْحَسَنَةُ ("yaxshi axloq"), الْأَخْلَاقُ الْخَبِيثَةُ (yaramas axloq), الْأَخْلَاقُ الْمَذْمُومَةُ (qoralangan axloq), سَفَاسِفُ الْأَخْلَاقِ (xunuk axloq), الْأَخْلَاقُ الْقَبِيحَةُ (axloqiy pastlik), رِذَائِلُ الْأَخْلَاقِ (axloqiy illatlar), صَالِحُ الْأَخْلَاقِ (solih axloq), خَيْرَاتُ الْأَخْلَاقِ (ezgu axloq), "طَيْبُ الْأَخْلَاقِ" (pokiza axloq) kabi ko'plab iboralar bilan boyitilgan (Mavsu'at al-axloq, 2009:28-44).

Kundalik hayotga oid faoliyatlar ovqatlanish, ichimlik ichish, suhbat qurish, safarga chiqish, mehmonga borish kabi ijtimoiy munosabatlar va muomala madaniyati bilan bog'liq xatti-harakatlar uchun ham odob va axloqiy qoidalar ishlab chiqilgan. Bunday ko'rsatmalar, odatda, adab yoki odab atamalariga qo'shimcha shakllarda bog'langan murakkab nomlar vositasida ifodalanib, axloqiy-pedagogik tavsiyalar jamlangan asarlarga mazkur terminologik yondashuv asosida nomlar berilgan. Shu jihatdan qaralganda, "axloq" tushunchasi insonning fazilatli yoki illatli tomonlari namoyon bo'lishiga qarab "yaxshi" yoki "yomon", "maqtovg'a sazovor" yoki "qoralangan" sifatda ta'riflanadi. Aks holda, axloqiy qadriyatlarni tavsiflash, go'zal xulqni tariflash yoki inson ichki olamini isloh qilish kabi tushunchalar o'z mantiqiy asosini yo'qotgan bo'ladi.

"Axloq" va "adab" tushunchalari ko'p hollarda bir-biriga yaqin ma'nolarda qo'llanilsa-da, mohiyat e'tibori bilan ular o'zaro farqlanuvchi, biroq bir-birini to'ldiruvchi ikki muhim atama hisoblanadi. "Axloq" (الأَخْلَاقُ) tushunchasi insonning ichki holati, odatga

aylangan doimiy xatti-harakatlariga asos bo'ladigan sifatlar majmui sifatida izohlanadi. Boshqacha aytganda, axloq – bu insonning tabiiy fe'l-atvori, xulqi va u orqali namoyon bo'ladigan yaxshi yoki yomon amallarni anglatadi. Shu sababli “axloq” tushunchasi doimiylik va barqarorlikni o'z ichiga oladi.

Bunga qarama-qarshi ravishda, “adab” (الأدب) atamasi ko'proq tashqi xulq, ijtimoiy muomala qoidalar, odob-axloq normalariga amal qilish kabi kontekstda ishlatiladi. Adab “odob-axloq qoidalar” (آداب المعاشرة) kabi iboralarda uchraydi. Bu yerda “adab” tushunchasi tashqi madaniyat, insonlar o'rtasidagi muomala, jamoaviy hayotda hurmat-ehtirom, noziklik, or-nomus, go'zallik kabi qadriyatlar bilan bevosita bog'liqdir. Demak, axloq – insonning ichki ruhiy-ma'naviy dunyosiga taalluqli bo'lsa, adab – bu holatning tashqi ifodasidir.

Bu ikki tushuncha o'rtasida chegarani belgilashga bo'lgan harakatlar ularni butunlay mustaqil yoki ajralgan holat deb qabul qilishga yetaklamasligi kerak. Aksincha, “axloq” va “adab” bir-birini to'ldiradigan, mukammallashtiradigan ikki asosiy tushuncha bo'lib, ularning uyg'unligi shaxs kamoloti va jamiyat barqarorligining zaruriy omilidir.

“Adab” atamasining lug'aviy va etimologik tahlili ushbu tushunchaning shakllanishi va taraqqiyotini to'laqonli anglashda muhim vosita hisoblanadi. Arab tilida bu so'zning eng qadimgi shakli “a-d-b” (أ-د-ب) ildizidan kelib chiqqan bo'lib, dastlabki ma'nolarda “ziyofatga taklif qilish”, “davlat etish”, “noziklik”, “muomala qilish” singari mazmunlarni anglatgan. Bu semantik qatlamlar adab tushunchasining jamiyatdagi estetik, axloqiy va madaniy jihatlarini ifodalashini ko'rsatadi (TDV İslâm Ansiklopedisi, – J. I. 1988:334). Ayniqsa, insonlar o'rtasidagi nozik ijtimoiy munosabatlar, izzat-nafsga hurmat, oriyat bilan muomala qilish kabi tamoyillar ushbu tushuncha doirasida shakllanib borgan.

Arab tilshunosligi sohasining yirik namoyandalaridan biri Ibn Manzûr (vaf. 1311) o'zining mashhur “Lisan al-‘arab” nomli asarida “adab” so'zining asosiy ma'nosini الدعوة (“da'vat etish”) sifatida belgilaydi (Lisan al-‘arab, – J. I. 1993:206). Bu yondashuvga ko'ra, adab dastlab ijtimoiy marosimlar va mehmondo'stlik bilan bog'liq bo'lgan muomala shakllarini bildirgan. Keyinchalik esa, u madaniy xatti-harakatlar, axloqiy me'yorlar va ilmiy-intellektual madaniyatni ham o'z ichiga oladigan keng tushunchaga aylangan.

“Adab” so'zining yana bir etimologik talqini G'arb tadqiqotchilaridan Bolpers va Nalminot tomonidan دَأَبْ ildizi bilan bog'lanib (Islom ensiklopediyasi, II jild. 2025:328), ushbu so'z arab tilida “muntazam

yoki davomli amalga oshiriladigan harakat”, “odat”, “urfon”, “an'ana” kabi ma'nolarni bildiradi. Ularning fikricha, “adab” dastlab qadimiy an'analarning to'plami bo'lib, uni rioya qilish ijtimoiy muvozanatni ta'minlovchi tamoyil sifatida qaralgan. Zamonaviy arab tilshunoslari bu etimologiyani ilmiy jihatdan ishonchsiz deb hisoblaydilar. Ularning fikricha, “adab” so'zining dastlabki shakllarida دَأَبْ ildiziga oid to'g'ridan-to'g'ri morfologik yoki semantik bog'liqlik mavjud emas. Tilshunoslikning ichki qonuniyatlariga tayangan holda, ular “adab”ni mustaqil ravishda “a-d-b” ildizidan kelib chiqqan, o'z tarixiy shakllanish yo'liga ega bo'lgan semantik birlik sifatida baholaydilar.

Hozirgi zamon tadqiqotlarida “adab” atamasi keng qamrovli ijtimoiy-madaniy tushuncha sifatida sharhlanadi. U faqatgina axloqiy odatlar yoki odob-qoidalarini emas, balki madaniy saviya, intellektual noziklik, estetik qarashlar tizimi va ijtimoiy muomala madaniyatini ham o'z ichiga oladi. Xususan, adab doirasida shakllangan qadriyatlar tizimi musulmon jamiyatlarida shaxsiy fazilat, ijtimoiy mas'uliyat, ilmdan bahramandlik, nutq va xatti-harakatda muloyimlik kabi sifatlarini rag'batlantirgan.

“Odob” (آداب) atamasi “adab” (أَدَب) so'zining ko'plik shakli bo'lib, u dastlab “usul, yo'l-yo'riq”, “odob” yoki “yo'l-yordam” ma'nolarini bildirgan. Bundan tashqari, “odob” termini mustaqil ravishda ham sharhlanadi. U “barcha harakat va muomalalarda rioya qilinadigan ma'qul va maqbul uslublar” sifatida ta'riflanib, inson xatti-harakatlari va faoliyatida rioya qilinishi lozim bo'lgan go'zal qoidalarini ifodalaydi. Shu bilan birga, bu atama biror kasb sohasi, san'at turi yoki xatti-harakatga nisbatan qo'llanganda, o'sha soha bilan bog'liq maxsus qoidalar, nozik jihatlar, hamda diniy, axloqiy va kasbiy me'yorlarni anglatadi. Masalan, “Odobu'l-bahs” iborasi mantiq faniga oid nazariy san'at bo'lib, munozara yuritish qoidalar, sifati va shartlarini bildiradi.

Hadis to'plamlarida “zuhd” tushunchasi muhim ma'naviy-axloqiy mavzu sifatida keng yoritilgan bo'lib, u musulmon kishining dunyo bilan munosabatini, qalb pokligi va Allohga bog'liqligini belgilovchi asosiy mezonlardan biri sifatida qaraladi. “Zuhd” atamasi arab tilidagi “z-h-d” (ز-ه-د) fe'lidani kelib chiqqan bo'lib, lug'aviy jihatdan “e'tiborsizlik, qiziqmaslik, rad etish” ma'nolarini anglatadi (TDV İslâm Ansiklopedisi, <https://islamansiklopedisi.org.tr/zuhd>). Bu so'z biror narsaga nisbatan loqaydlik, undan voz kechish yoki unga nisbatan istak yo'qligini bildiradi. Ayniqsa, zuhd diniy kontekstda dunyoviy narsalardan – mol-dunyo, nafs istaklari, hasham va shahvatlardan yuz o'girib, o'zini ibodatga, ma'naviy kamolga bag'ishlash holatini

ifodalaydi. Zuhd shuningdek, “qanoat”, “o‘ziga yetarli bo‘lgan bilan kifoyalanish”, “axloqiy parhezkorlik” kabi tushunchalar bilan chambarchas bog‘liqdir.

Tilshunos Ibn Manzur “Lison al-arab” asarida zuhdni “dunyoga bo‘lgan rag‘bat va hirsdan voz kechish” deb ta’riflaydi (Lison al-arab, – J. VI. 1993:97). Imom Buxoriy o‘zining “al-Jome‘ as-Sahih” asarining turli boblarida bu mavzuga to‘xtaladi. Ayniqsa, Imom Buxoriy, Imom Muslim, Imom Termiziy va Imom Ahmad ibn Hanbal kabi muhaddislar hadislar to‘plamlarida zuhd mavzusiga bag‘ishlangan alohida boblarni keltirganlar. Imom Ahmad ibn Hanbalning “Musnad” asarida ham zuhd va dunyodan voz kechish haqida ko‘plab hadislar jamlangan bo‘lib (Ahmad ibn Hanbal, Musnad. 1997: <https://sunnah.com/ahmad>), keyinchalik bu mavzuga alohida e’tibor qaratilgan va “Kitab az-Zuhd” nomli alohida asarlar ham vujudga kelgan.

Payg‘ambar Muhammad (s.a.v.)ning quyidagi hadisi zuhdning haqiqiy ma’nosini yoritadi: “Dunyoda zuhdli bo‘lish – halolni haromga chiqarish yoki mol-dunyoni butunlay tark etish emas. Dunyoda zuhdli bo‘lish – Allohning qo‘lida bo‘lgan narsalarga, o‘zingdagi narsalardan ko‘ra ko‘proq ishonching bo‘lishidir. Musibat yetganida, uning savobi va mukofotidan umidvor bo‘lishdir” (Termiziy, – J. IV. 2009:494). Ushbu hadisdan ko‘rinib turibdiki, zuhd deganda mol-dunyoni butkul rad etish emas, balki qalbdagi unga bog‘liqlikning yo‘qligi tushuniladi. Ya’ni, zuhd nafaqat moddiy hayotga e’tiborsizlik, balki Allohga bo‘lgan to‘liq tavakkul va qalb pokligidir.

Yana bir mashhur hadisda Rasululloh (s.a.v.) shunday deganlar: “Dunyoga zuhd qil, Alloh seni sevadi. Odamlarning qo‘lida bo‘lgan narsalarga nisbatan zuhdli bo‘l, odamlar seni sevadi” (Sunan ibn Mojja, – J. II. 2006:1373). Bu hadis insonlar bilan munosabatda ham, Robbiga bo‘lgan munosabatda ham ichki tozalik, istaklardan poklik zarurligini ta’kidlaydi. Zuhdning mazmuni, shuningdek, dunyo istaklaridan kelib chiqadigan g‘am va tashvishlardan saqlanishdir. Rasululloh (s.a.v.): “Zuhd – qalb va badan uchun oromdir. Dunyo istagi esa g‘am va tashvishni ko‘paytiradi”, – deganlar (Ahmad ibn Hanbal, Musnad. 1997: <https://sunnah.com/ahmad>). Bu hadislar zuhdning insoniy tinchlik, qalb oromiga olib boruvchi asosiy axloqiy mezon ekanligini ko‘rsatadi.

Zuhdga doir hadislar to‘plamlarida kelgan misollar orasida Abdulloh ibn Umar (r.a.)dan rivoyat qilingan quyidagi hadis ham diqqatga sazovordir: “Rasululloh (s.a.v.) yelkamdan ushlab, shunday dedilar: ‘Dunyoda g‘oyib yo‘lovchi yoki musofir kabi bo‘lgini!’” (al-Jomi‘ al-sahih, – J. VIII. 2018:89). Bu hadis musulmon kishining dunyoviy hayotga qanday munosabatda

bo‘lishi kerakligini aniq belgilab beradi – ya’ni, bu dunyoni abadiy emas, faqat vaqtincha maskan deb bilish zarurligini bildiradi.

Imom Buxoriy o‘zining “al-Adab al-Mufrad” nomli axloqiy hadislar to‘plamida ham zuhd, qanoat, dunyo bilan muomala, sabr va ixlos kabi tushunchalarni o‘z ichiga olgan ko‘plab hadislarini keltiradi. Bu hadislar orqali musulmonlarga Allohga yaqinlikni, qalbni tozalashni va taqvoqa erishishni ko‘rsatib beradi. Hadis to‘plamlarida zuhd tushunchasi musulmon kishining ichki dunyosi, axloqiy pokligi va Allohga bo‘lgan ishonchi bilan bevosita bog‘liqdir. Zuhd faqatgina tashqi ko‘rinishda dunyodan voz kechish emas, balki qalbdagi Allohdan boshqaga bo‘lgan istakni tugatish, dunyoni qalbgaga kiritmaslik, Alloh roziligini har qanday boylikdan ustun qo‘yishdir. Hadislar bu tushunchani chuqur va har tomonlama yoritib bergan bo‘lib, u har bir musulmonning hayotida markaziy ahamiyatga ega bo‘lishi lozimdir.

“Raqoiq” (رَقَائِقُ) atamasi hadis to‘plamlarida muhim axloqiy tushunchani ifodalaydi, lug‘aviy jihatdan u “nozilik”, “zebo va nafis holat”, “mehr-oqibat”, “yumshoqlik” kabi ma’nolarni anglatadi va bu ma’nolar رَقَّة hamda رَقِيق so‘zlarining ko‘plik shaklidir (Lison al-arab, – J. VI. 1993:205). Ba’zida bu atama “riqoq” (رِقَاق) shaklida ham qo‘llaniladi. Bu so‘zlar asosan qalbning nozikligi, insonning ruhiy holati, mehr-muruvvatga moyilligi va qalban yumshoqligini tasvirlashda ishlatiladi.

Muhammad Badruddin Ayniy (vaf. ۸۵۵/۱۴۵۱) o‘zining hadis sharhlarida “رَقَّة” so‘zini “غلظة” ya’ni dag‘allik, qo‘pollik so‘zining aksi sifatida talqin qiladi (Badriddin Ayniy. – J. XXIII. 2021:30). Ya’ni, “raqoiq” – bu odamdagi yumshoqlik, nafosat, insoniy mehr-oqibatga moyillik, qalbning sezuvchanligi kabi fazilatlarini bildiruvchi tushuncha sifatida sharhlanadi. Shuning uchun, hadis to‘plamlarida “Kitab ar-Raqoiq” deb nomlangan boblarda qalbgaga ta’sir qiluvchi, bandani fikrga chorlovchi, axloqiy saboqlar beruvchi hadislar jamlangan bo‘ladi. Mazkur bob hadis ilmidagi adabiy, ruhiy-ma’naviy jihatlarni yoritadi. Ayniqsa, Imom Buxoriy tomonidan tuzilgan “al-Jome‘ as-Sahih” asarining “Kitab ar-raqoiq” bobi bu borada eng muhim manbalardan biridir. Ushbu bobda keltirilgan hadislar inson qalbida dunyo va oxirat o‘rtasidagi muvozanat, zohidlik (dunyoga berilmaslik), sabr, tavakkul, tavba, taqvo, qanoat, dunyoparastlikning zararli oqibatlari kabi mavzular orqali insonni axloqiy komillik sari yetaklaydi.

“Kitab ar-raqoiq” bobida zikr etilgan hadislarining barchasi bevosita inson qalbi bilan bog‘liq bo‘lib, ruhiy tarbiyani asosiy maqsad qilgan. Boshqa hadis to‘plamlarida ham “raqoiq” mazmunidagi boblar alohida

e'tibor bilan ajratilgan. Masalan, Imom Muslim o'zining "Sahih Muslim" asarida bevosita "Kitab ar-raqoiq" degan bobni alohida ajratmagan bo'lsa-da, ammo u "Kitab az-zuhd" yoki "Kitab at-tavba" kabi boblar orqali ushbu mazmundagi hadislarni bayon etgan. Imom Termiziy esa "Sunan Termiziy"da "Kitab az-zuhd" bobida bu turdagi hadislarni jamlagan. Shuningdek, Imom Abu Dovud, Imom Nasaiy va boshqa muhaddislar ham "zuhd", "tavba", "taqvo" kabi boblar orqali "raqoiq" ma'nolarini yoritganlar. Ushbu terminlar va semantik izohlar tasavvufiy adabiyotlarda ham o'z ifodasini topgan. Aytish joizki, tasavvufda "Raqqoiq" masalalari qalb pokligi, "muroqaba" (Allohning huzurida ekanini doimiy his qilish) tushunchasi bilan chambarchas bog'langan. Bu holat tasavvuf ahli bilan hadis ilmi vakillari o'rtasida ba'zi hollarda ziddiyatlariga ham sabab bo'lgan. "Raqqoiq" atamasi nafaqat noziklik va mehribonlikni, balki inson qalbiga ta'sir etuvchi ruhiy-tarbiyaviy qadriyatlarni ham o'zida mujassam etadi.

"Birr" (بِرّ) – bu atama lug'aviy jihatdan "yaxshilik qilish", "ezgulik", "taqvo va to'g'rilik" kabi ma'nolarni ifodalaydi (Rag'ib Isfahoniy, 1992:114). Islom dinida bu tushuncha keng ma'noga ega bo'lib, ota-onaga hurmat ko'rsatish, insonlarga mehribon bo'lish, adolatli va samimiy bo'lish kabi fazilatlarni o'z ichiga oladi. Hadis to'plamlarida bu tushuncha ko'plab bob va hadislar vositasida bayon qilingan bo'lib, ularning asosiy maqsadi musulmon kishini ezgulikka, to'g'rilikka va axloqiy barkamollikka da'vat etishdan iboratdir.

Ibn Manzur "Lison al-arab" asarida "birr"ni "ro'stgo'ylik, itoat va yaxshilik" deb ta'riflaydi (Lison al-arab, – J. IV. 1993:52). Bu kalimaning asosini tashkil etuvchi "بر" fe'li arab tilida "kimdir qarindoshlarini tark etmaydi, ularga doimo mehribonlik qiladi" degan ma'noni bildiradi. Bu esa "birr"ning amaliy va ijtimoiy mazmunini ochib beradi. Shunday ekan, hadis to'plamlarida mazkur tushunchaga alohida e'tibor qaratilib, ko'plab boblar "كتاب البرّ" (Yaxshilik kitobi) yoki "كتاب البرّ والصلة" (Yaxshilik va qarindoshlik kitobi) nomi bilan atalgan. Ushbu boblar hadisiiy axloqshunoslikning asosiy qismini tashkil etadi. Ular insoniy fazilatlar – mehribonlik, saxovat, vafo, sabr, halollik, poklik va ijtimoiy hamjihatlik tamoyillarini chuqur yoritadi. Imom Buxoriy, Imom Muslim, Abu Dovud, Termiziy va boshqa muhaddislar hadis to'plamlarida "كتاب البرّ" boblarini alohida mavzu sifatida bayon qilganlar.

Imom Buxoriy o'zining "al-Jome' as-Sahih" asarida axloqqa doir hadislarni to'plagan "كتاب الأدب" bobida "البرّ و صلة الرحم" ya'ni, yaxshilik qilish va qarindosh-urug'lar bilan aloqani mustahkamlash mavzusiga alohida e'tibor qaratadi. Bu bobda keltirilgan hadislar, ota-onaga yaxshilik qilish, qarindoshlik rishtalarini uzmaslik,

mehr-oqibat va sabr kabi fazilatlarni targ'ib qiladi. Misol uchun, Rasululloh (s.a.v.) "Birr – bu husni xulq (go'zal xulq), gunoh esa qalbingni siqib, odamlardan yashirishni istagan narsadir", – deganlar (Sahih Muslim, – J. IV. 1972:1980). Ushbu hadis orqali birr tushunchasining mohiyati – inson qalbida paydo bo'ladigan ezgulik, halollik va ichki poklikka urg'u beriladi.

Imom Termiziy o'zining "Sunan" to'plamida "كتاب البرّ والصلة" nomli bob ajratgan bo'lib, bu bobda ijtimoiy axloq, insonlar bilan muomala, mehribonlik, sabr, halollik, kechirimlilik va xushmuomalalik singari axloqiy fazilatlarni yorituvchi hadislarni jamlagan. Bu bobda keltirilgan hadislar orqali musulmon kishining boshqa insonlar bilan qanday munosabatda bo'lishi kerakligi, ota-onani hurmat qilish, bolalarga rahm qilish va kambag'allarga yordam berish kabi qator jihatlar keng yoritiladi. Shuningdek, Imom Muslimning "Sahih Muslim" asarida ham "كتاب البرّ والصلة و الأدب" bobida shunday fazilatlar yoritiladi. Bu bobda, asosan, musulmonlarning bir-biriga nisbatan mehribonligi, nasihatgo'yligi, yaxshi munosabatda bo'lishi va kechirimli bo'lishi singari jihatlar ijtimoiy birlik va axloqiy yuksaklik mezonini sifatida ko'rsatiladi.

Imom Abu Dovud esa "Sunan" asarida "Kitab al-adab" bobida "birr" tushunchasini yorituvchi ko'plab hadislarni jamlagan. Bu hadislar, xususan, ota-onaga itoat, yetimlarga g'amxo'rlik, do'stlarga sadoqat, qo'shnichilik haqlari va keng axloqiy mezonlarni tushuntiradi. Ular orasida "Ota-onasining roziligini olgan kishi Jannatni topadi" mazmunidagi hadislar, birinning nafaqat diniy, balki ijtimoiy hayotdagi ahamiyatini ham namoyon qiladi.

Bularning barchasi shuni ko'rsatadiki, "birr" tushunchasi hadis ilmidagi eng asosiy axloqiy tamoyillardan biri bo'lib, Qur'on va Sunnat asosida shakllangan islomiy axloqiy tizimning markaziy jihatlaridan biridir. Bu tushuncha nafaqat shaxsiy axloq, balki oilaviy, ijtimoiy va umuminsoniy munosabatlarda ham asosiy mezon bo'lib xizmat qiladi. Hadislar orqali "birr" fazilati kishilar qalbida rahm-shafqat, fidoyilik, adolat va halollikni shakllantirishni ko'zlaydi. Shu boisdan, hadis to'plamlarida "birr" tushunchasiga alohida boblar ajratilib, u orqali musulmon kishining axloqiy yetukligini ta'minlashga xizmat qilinadi.

TAXLIL

Imom Buxoriy o'zining "al-Jomi' as-Sahih" asarida "Kitab al-Adab" nomli bobda 128 bobdan iborat 249 hadisni jamlagan. Ushbu bob bevosita odob-axloq, insoniy munosabatlar va jamiyatda yuksak fazilatlarni

rivojlantirishga qaratilgan. Shu bilan birga, “Kitab al-manaqib”, “Kitab ashab an-nabiy”, “Kitab manaqib al-ansor” va “Kitab ar-Riqaq” kabi boblarda ham axloqiy jihatdan muhim bo‘lgan rivoyatlar mavjud. Bu esa, “Adab” mavzusi hadis ilmining turli boblari orqali ham o‘z aksini topishini bildiradi. Imom Muslim esa o‘zining “al-Jomi‘ as-Sahih” asarida “Kitab al-Adab” bobida 10 bobda 45 hadis keltirgan bo‘lsa-da, boshqa boblar, xususan, “Kitab al-alfaz min al-adab”, “Kitab az-zuhd va ar-raqiq”, “Kitab al-faza’il” kabi bo‘limlar orqali ham bu mavzuni yanada kengroq yoritadi.

Imom Termiziy “Sunan” asarida “Kitab al-Adab” bobida 82 bobdan iborat 142 hadisni, “Kitab al-birr va as-sila”, “Kitab az-zuhd” va “Kitab al-manaqib” boblarida esa odobga oid ko‘plab hadislarini keltirgan. Bu yondashuv hadis ilmining tasnifida adabiy-axloqiy mazmunning bir necha boblar orqali ifodalanishini ko‘rsatadi. Ayniqsa, “Kitab al-birr va as-sila” bobidagi hadislar qarindoshlik, do‘stlik va insonlararo munosabatlardagi axloqiy mezonlarni ochib beradi. Imom Abu Dovud “Sunan” asarida “Kitab al-Adab” bo‘limida 169 bobda 501 hadis keltirib, adabiy hadislarini eng keng yoritgan muhaddislardan biri bo‘lgan. Imom Nasa’iy esa “Kitab Adab al-Quzzot” orqali qozilarning axloqiy fazilatlarini, ularning odobiy mas’uliyatlariga urg‘u bergan.

Imom Ibn Moja “Kitab al-Adab” bobida 59 bobda 169 hadis, “Kitab az-Zuhd” bobida esa 241 hadisni jamlab, ruhiy poklik, dunyodan voz kechish va oddiy hayot tarzini targ‘ib qilgan. Imom Molik ibn Anas “al-Muvatta’” asarida “Kitab al-Isti’dhan” va “Kitab Husn al-Huluq” boblari orqali insoniy muomala va odob-axloq masalalariga e’tibor qaratgan. Imom Dorimiy esa “Sunan” asarida “Kitab al-Isti’dhan” va “Kitab ar-Riqaq” boblari orqali yurakni yumshatadigan, ruhiy tarbiyani targ‘ib qiluvchi hadislarini o‘z ichiga olgan.

Adabiy hadislarining tasnifida turlicha boblar ostida keltirilishi hadis musanniflarining tasnif uslubiga bog‘liq bo‘lsa-da, ularning asosiy vazifasi musulmon shaxsining axloqiy qiyofasini shakllantirishdan iboratdir. Bu hadislar orqali nafaqat shaxsiy tarbiya, balki jamiyatda tinchlik, adolat, mehr, ehtirom kabi fazilatlar ham o‘z ifodasini topadi. Xulosa shuki, hadis to‘plamlaridagi “Adab” boblari islomiy axloqni shakllantiruvchi muhim manba bo‘lib, ular nafaqat tarixiy, balki hozirgi zamonaviy jamiyatda ham o‘z aktual ahamiyatini saqlab qolmoqda. Mazkur rivoyatlar orqali musulmon insonning ichki va tashqi madaniyati, axloqiy barkamolligi, ijtimoiy uyg‘unligi va ilohiy taqvosini o‘z aksini topadi. Shuning uchun “Kitab al-adab”lar, nafaqat hadisshunoslik, balki islomda axloq masalasini o‘rganishda ham muhim poydevor sanaladi.

E’tirof qilingan hadis to‘plamlarida “Adab” bobi quyidagi bo‘limlarda bayon etilgan:

1. *Imom al-Buxoriy (vaf. 256/870) – “Al-jomi‘ as-sahih” asarida quyidagi boblar mavjud:*

– Kitob al-Adab (Odob-axloq kitobi) – 128 bob, 249 hadis.

– Kitob al-Manaqib (Fazilatlar kitobi) – 28 bob, 148 hadis.

– Kitob Ashab an-Nabiy (Payg‘ambarning sahobalari kitobi) – 30 bob, 115 hadis.

– Kitob Manaqib al-Ansar (Ansorlar fazilatlar kitobi) – 53 bob, 162 hadis.

– Kitob al-Isti’dhan (Ruxsat so‘rash kitobi) – 53 bob, 73 hadis.

– Kitob ar-riqaq (Yurakni yumshatadigan hadislar kitobi) – 53 bob, 171 hadis.

2. *Imom Muslim ibn Hajjaj (vaf. 261/875) – “Al-jomi‘ as-sahih” asarida quyidagi boblar mavjud:*

– Kitob al-adab (Odob-axloq kitobi) – 10 bob, 45 hadis.

– Kitob al-Alfaz min al-Adab (Odobga oid iboralar kitobi) – 5 bob, 21 hadis.

– Kitob az-Zuhd va ar-Raqa‘iq (Zuhd va yurakni yumshatadigan hadislar kitobi) – 19 bob, 75 hadis.

– Kitob al-Fada’il (Fazilatlar kitobi) – 46 bob, 174 hadis.

3. *Imom Abu Iso Muhammad ibn Iso Termiziy (vaf. 279/892) – “Sunan” asarida quyidagi boblar mavjud:*

– Kitob al-Adab (Odob-axloq kitobi) – 82 bob, 142 hadis.

– Kitob al-Isti’dhan va al-adab (Ruxsat so‘rash va odob kitobi) – 34 bob, 47 hadis.

– Kitob al-birr va as-sila (Yaxshilik va qarindoshlik aloqalari kitobi) – 87 bob, 138 hadis.

– Kitob az-zuhd (Zuhd kitobi) – 62 bob, 110 hadis.

– Kitob al-manaqib (Fazilatlar kitobi) – 74 bob, 351 hadis.

4. *Imom Abu Davud Sulaymon (vaf. 275/888) – “Sunan” asarida quyidagi bob mavjud:*

– Kitob al-adab (Odob-axloq kitobi) – 169 bob, 501 hadis.

5. *Imom Nasa’iy, Abu Abdurrahman Ahmad ibn Shu‘ayb (vaf. 303/915) – “Sunan” asarida quyidagi bob mavjud:*

– Kitob adab al-quzzot (Qozilar odobi kitobi) – 37 bob, 48 hadis.

6. *Imom Ibn Maja, Abu Abdullah Muhammad ibn Yazid Qazviniiy (vaf. 273/886) – “Sunan” asarida quyidagi boblar mavjud:*

– Kitob al-adab (Odob-axloq kitobi) – 59 bob, 169 hadis.

XYJOCA

– Kitob az-zuhd (Zuhd kitobi) – 39 bob, 241 hadis.

7. *Imom Malik ibn Anas (vaf. 179/795) – “Muvatta’ asarida quyidagi boblar mavjud:*

– Kitob al-isti’dhan (Ruxsat so‘rash kitobi) – 17 bob, 44 hadis.

– Kitob husn al-huluq (Yaxshi xulq kitobi) – 4 bob, 18 hadis.

8. *Imom Darimiy Abu Muhammad Abdullah ibn Abdurrahman (vaf. 255/869) – “Sunan” asarida quyidagi boblar mavjud:*

– Kitob al-isti’dhan (Ruxsat so‘rash kitobi) – 69 bob, 76 hadis.

– Kitob ar-riqoq (Yurakni yumshatadigan hadislar kitobi) – 122 bob, 143 hadis.

Imom Muhammad ibn Ismoil Buxoriyning “Al-adab al-mufrad” asari hadis ilmi asosida tartibga solingan, axloqiy-odobiy mavzularga ixtisoslashgan mashhur hadis to‘plami bo‘lib, unda faqatgina axloq, ijtimoiy muomala, oila va insonlararo munosabatlarga oid hadislarini jamlagan. “Al-adab al-mufrad” asarining ilk boblaridan boshlab unda ijtimoiy-axloqiy munosabatlar, xususan, oilaviy rishtalar masalasiga alohida e’tibor qaratilganini ko‘rish mumkin (“Adabul-mufrad” asariga sharh. 2021:516). Ushbu dastlabki bo‘limlar inson va uning eng yaqin muhitidagi o‘zaro aloqalar – ota-onaga itoat, ularning roziligini qozonish, mehr-muhabbat va sadoqatli xizmat mavzularini o‘z ichiga oladi. Bu boblar orqali Islom ta’limotida oilaning, ayniqsa, ota-ona maqomining qanday yuksak darajada ko‘rilishi ifodalanadi.

Asarda Qur’oni Karim, tafsir kitoblari va eng nufuzli hadis to‘plamlari, avvalo “Kutub as-sitta”dagi “Kitab al-adab”, “Kitab al-birr va’s-sila”, “Kitab al-ashriba”, “Kitab al-at’ima”, “Kitab al-libas” kabi insonning shaxsiy va ijtimoiy hayotida amal qilinishi lozim bo‘lgan odob-qoidalarga oid boblar asos qilib olinadi. Buxoriyning “Al-adab al-mufrad” nomli asari o‘ziga o‘xshash boshqa asarlar orasida alohida ajralib turadi. Bu asarda ham Buxoriyning ilmiy salohiyati yaqqol seziladi. Ko‘plab marotaba nashr qilingan ushbu asarning mazkur tadqiqotda asos qilib olingan nashriga ko‘ra unda 644 ta bob va 1322 ta hadis mavjud (“Adabul-mufrad” asariga sharh. 2021:49). Ushbu hadislarining yarmiga yaqini uning mashhur “Al-jomi’ as-sahih” asarining “Kitab al-at’ima” (taomlar), “Kitab al-ashriba” (ichimliklar) va “Kitab al-libas” (kiyimlar) kabi axloqiy va odobiy masalalarga oid boblarida ham zikr qilingan bo‘lsa-da, oltmish uchta bundan mustasno, qolganlari “Kutub as-sitta”da mavjudligi, muallifning “al-Adab al-Mufrad”da keltirilgan hadislarini katta e’tibor va sinchkovlik bilan tanlaganini ko‘rsatadi.

Jome’ va sunan turidagi hadis to‘plamlarida “Kitob al-Adab” nomi ostida alohida boblar mavjud. Bu boblarda, odatda, ovqatlanish, ichimlik ichish, kiyinish, sayohat qilish, yotish va turish kabi kundalik hayotga doir odob qoidalari, insonning Alloh bilan, boshqa insonlar va yaratilgan mavjudotlar bilan munosabatlarini tartibga soluvchi ijtimoiy mazmundagi hadislar jamlangan bo‘ladi. Jome’ turidagi hadis to‘plamlarida “Kitob al-Adab” asosiy bo‘limdan biri hisoblanadi. Sunna asarlar esa asosan shar’iy hukmlar (ahkom) bilan bog‘liq hadislarini o‘z ichiga oladi. Biroq ayrim sunanlarda fiqhning asosiy masalalari doirasidan tashqaridagi mavzular, jumladan, odob-axloq bilan bog‘liq hadislar ham uchraydi. Ayrim sunan to‘plamlarida ham “Kitob al-adab” bo‘limi mavjud. Abu Dovud, Termiziy va Ibn Moja kabi muhaddislarning sunanlarida bunga yaqqol misollar mavjud. Bundan tashqari, “Kitob al-adab” nomi ostida ham Termiziy, Nasoiy va Muslim kabi mashhur muhaddislar bu mavzuni o‘z asarlarida alohida tarzda yoritganlar.

Hadis to‘plamlarining deyarli barchasida ayniqsa, “Kutub as-Sitta” deb nom olgan eng mashhur oltita hadis to‘plamida – “Kitob al-adab”, “Kitab al-birr”, “Kitab husn al-xulq” kabi boblar mavjud bo‘lib, ular bevosita axloqiy hadislarini o‘z ichiga oladi. Shuningdek, alohida faqat axloqqa doir rivoyatlardan iborat bo‘lgan asarlar ham mavjud. Jumladan, Imom Buxoriyning “Al-adab al-mufrad”i yoki Abdulloh ibn Muborakning “Kitab az-zuhd va Riqoq” asarlari axloqiy hadislarining alohida jamlanmasi sifatida alohida e’tiborga loyiqdir. Shu bilan birga, musulmon ilmiy an’anasi davomida shakllangan “Arba’in” (qirq hadis) to‘plamlarining muhim qismi ham axloqiy mavzularni o‘z ichiga olgan. Bu hadislar musulmon kishining shaxsiy va ijtimoiy hayotini tartibga soluvchi asosiy tamoyillarni ifodalab, axloqiy dunyoqarashni shakllantirishda muhim vosita bo‘lib xizmat qilgan.

ФЙДАЛАНИЛГАН АДАБИЁТЛАР

1. Badriddin Ayniy. (2021). Umdat al-qoriy sharhi sahih al-Buxoriy. – Bayrut: Dor ihya at-Turos al-arabiy.
2. Muhammad ibn Ismoil Buxoriy. (2018). al-Jomi’ al-sahih. – Bayrut: Dor tavq al-najah.
3. Muslim ibn Hajjoj. (1972). Sahihi Muslim. – Bayrut: Dor Ihya at-turas al-arabiy.
4. Ahmad ibn Hanbal (1997). Musnad. – Bayrut: Alamum al-kutub.
5. Ibn Manzur, M. i. (1993). Lison al-arab. – Bayrut: Dor Sodir.

6. Rag'ib Isfahoniy. (1992). *al-Mufradot fi g'arib al-Qur'on*. – Bayrut: Dor al-qalam.
7. Muhammad ibn Yazid ibn Abdulloh ibn Moja. (2006). *Sunan ibn Mojja*. – Qohira: Dor ihya al-kutub al-arabiya.
8. Abu Abdurrahmon Ahmad ibn Shuayb Nasoiy. (2018). *Sunan Nasoiy*. – Damashq: Dor risolat al-alamiya.
9. Ibn Saloh. (2009). *Ulum al-hadis*. – Bayrut: Dor al-fikr.
10. Muḥammad ibn Ibrohim Sheroziy. (1995). *Al-qomus al-muhit*. – Bayrut: Dor al-kutub al-ilmiyya.
11. Abu Dovud Sijistoni. (1997). *Sunan Abu Dovud*. – Bayrut: Kutub al-ilmiya.
12. TDV İslâm Ansiklopedisi . (1978). – Istanbul: Diyanet Vakfi.
13. Muhammad ibn Iso Termiziy. (2009). *Sunan Termiziy*. – Riyod: Bayt al-afkor.
14. Xolid ibn Jumu'a Xarraz. (2009). *Mavsu'at al-axloq*. – Quvayt: Maktabat Ahl.
15. Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf. (2021). *Odoblar xazinasi // Imom Buxoriy. Adabul Mufrad. asariga sharh*. – Toshkent: Hilol-Nashr.
16. Islomov Zohidjon. (2025). *Islom ensiklopediyasi (T. II)*. – Toshkent: O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi.
17. Сунани Доримий китобидан дурдона ҳадислар. (2023). – Самарқанд: Имом Бухорий халқаро илмий-тадқиқот маркази.
13. Muḥammad ibn 'Īsā al-Tirmidhī. (2009). *Sunan al-Tirmidhī*. Riyadh: Bayt al-Afkār.
14. Khālīd ibn Jumu'a al-Kharrāz. (2009). *Mawsū'at al-Akhlaq (Encyclopedia of Ethics)*. – Kuwait: Maktabat Ahl al-Athar.
15. Muḥammad Ṣodīq Muḥammad Yūsuf. (2021). *The Treasury of Manners: A Commentary on Imām al-Bukhārī's "al-Adab al-Mufrad"*. – Tashkent: Hilol-Nashr.
16. Zohidjon Islomov. (2025). *Islamic Encyclopedia (Vol. II)*. – Tashkent: International Islamic Academy of Uzbekistan.
17. *Pearls of Ḥadīths from Sunan al-Dārimī*. (2023). – Samarkand: Imom Buxoriy International Research Center.

REFERENCES

1. Badr al-Dīn al-'Aynī. (2021). *'Umdat al-Qārī: Commentary on Ṣaḥīḥ al-Bukhārī*. – Beirut: Dār Ihya' al-Turāth al-'Arabī.
2. Muḥammad ibn Ismā'īl al-Bukhārī. (2018). *al-Jāmi' al-Ṣaḥīḥ (Ṣaḥīḥ al-Bukhārī)*. – Beirut: Dār Tawq al-Najāt.
3. Muslim ibn al-Ḥajjāj. (1972). *Ṣaḥīḥ Muslim*. – Beirut: Dār Ihya' al-Turāth al-'Arabī.
4. Aḥmad ibn Ḥanbal. (1997). *Musnad Aḥmad ibn Ḥanbal*. – Beirut: 'Ālam al-Kutub.
5. Ibn Manẓur, Muḥammad ibn Mukarram. (1993). *Lisān al-'Arab*. – Beirut: Dār Ṣādir.
6. al-Rāghib al-Iṣfahānī. (1992). *al-Mufradāt fi Gharīb al-Qur'ān*. – Beirut: Dār al-Qalam.
7. Muḥammad ibn Yazīd ibn 'Abd Allāh Ibn Mājah. (2006). *Sunan Ibn Mājah*. – Cairo: Dār Ihya' al-Kutub al-'Arabiyya.
8. Abū 'Abd al-Raḥmān Aḥmad ibn Shu'ayb al-Nasā'ī. (2018). *Sunan al-Nasā'ī*. – Damascus: Dār Risālat al-'Ālamiyya.
9. Ibn al-Ṣalāḥ. (2009). *'Ulūm al-Ḥadīth (An Introduction to the Science of Ḥadīth)*. – Beirut: Dār al-Fikr.
10. Muḥammad ibn Ibrāhīm al-Shīrāzī. (1995). *al-Qāmūs al-Muḥīṭ*. – Beirut: Dār al-Kutub al-'Ilmiyya.
11. Abū Dāwūd al-Sijistānī. (1997). *Sunan Abī Dāwūd*. – Beirut: Dār al-Kutub al-'Ilmiyya.
12. TDV İslâm Ansiklopedisi (TDV Encyclopedia of Islam). (1978). – Istanbul: Türkiye Diyanet Vakfı (Turkish Religious Foundation).